XALQ DEPUTATLARI ANDIJON VILOYATI KENGASHINING QARORI

Andijon shahar, Abdurauf Fitrat ko`chasi 239-uy

2023 - yil 19 - sentabr VI-53-179-1-0-K/23 Andijon viloyati hokimligi

Viloyatda ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlar (tariflar)ni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarish to‘g‘risida”gi (2022-yil 22-iyuldagi O‘RQ-784) Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6074-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi PQ-171-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. “Andijon suv ta’minoti” MCHJ direktori Sh.Matmusayevning ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlar (tariflar) yuzasidan taqdimoti shuningdek, Andijon viloyati iqtisodiyot va moliya Bosh boshqarmasi hamda O‘zbekiston Respublikasi raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo`mitasining Andijon viloyat hududiy boshqamarmalarining xulosalari ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Viloyatda ichimlik suvi ta’minoti va kanalizatsiya xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlar (tariflar) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur qaror rasmiy veb-saytlarda e’lon qilinsin.

4. Tasdiqlangan tariflar ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingandan

keyin o‘n besh kun o‘tgach kuchga kirishi belgilansin.

5. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2020-yil 23-noyabrdagi 68/15-6-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Xojiboyev) hamda viloyat hokimining o‘rinbosari I.Xolmatov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi **SH.Q.Abdurahmanov**

Xalq deputatlari Andijon viloyat
Kengashining
2023-yil 19-sentabrdagi
VI-53-179-1-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

Andijon viloyat suv ta’minoti va kanalizatsiya xizmatlari uchun amaldagi va taklif etilayotgan narxlar (tariflar)

Xizmat turi	Amaldagi narx (tarif) (so‘m)	Taklif etilayotgan narx (tarif) (so‘m)
Ichimlik suv yetkazib berish narxi		
Axoli uchun 1 m3	750	1500
Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3	1200 (qqs siz)	2400 (qqs siz)
Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3	1800 (qqs siz)	3800 (qqs siz)
Oqova suv xizmati narxi		
Axoli uchun 1 m3	750	1500
Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3	1200 (qqs siz)	2400 (qqs siz)
Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3	1600 (qqs siz)	3200 (qqs siz)